

Моя профессиональная
карьера



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER

ISSN
2782-4365

Проверить
номер:



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

Выпуск №60-2 (том 1)
(март, 2025)



Проверить индексацию статьи. Сайт: mrcareer.ru/google



Свидетельство
о регистрации СМИ
№ЭЛ ФС 77-77927
от 19.02.2020 г.



РОСКОМНАДЗОР

Периодичность выпуска: 1 раз в неделю
Сайт: mrcareer.ru/oinv21veke. Почта: obrmpcareer@mail.ru



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

ISSN 2782-4365

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №60-2 (том 1) (март,
2025). Дата выхода в свет: 17.03.2025.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Пестерев С.В. – гл. редактор, отв. за выпуск

Абдурасулов Абдуллажон Абдукаримович	доктор философии педагогических наук
Азамов Жасурбек Муродович	доктор философии в области юриспруденции
Артикова Мухайохон Ботиралиевна	доктор педагогических наук, доцент
Ахмедов Ботиржон Равшанович	доктор философии в филолог. науках (PhD), доцент
Батурич Сергей Петрович	кандидат исторических наук, доцент
Бекжанова Айнура Мархабаевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент
Бекжанова Гулнара Маркабаевна	кандидат медицинских наук, преподаватель
Боброва Людмила Владимировна	кандидат технических наук, доцент
Богданова Татьяна Владимировна	кандидат филологических наук, доцент
Ботиров Аминжон Розимбоевич	кандидат биологических наук, доцент
Демьянова Людмила Михайловна	кандидат медицинских наук, доцент
Еремеева Людмила Эмировна	кандидат технических наук, доцент
Жуманова Фатима Ураловна	кандидат педагогических наук, доцент
Засядько Константин Иванович	доктор медицинских наук, профессор
Исломова Саидахон Тургуновна	доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент
Кабулова Мехрибан Толыбаевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD)
Казакова Раъно Машрабаевна	доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Кодиров Хасанбой Орибжонович	доктор философии педагогических наук
Колесников Олег Михайлович	кандидат физико-математических наук, доцент
Коробейникова Екатерина Викторовна	кандидат экономических наук, доцент
Ланцева Татьяна Георгиевна	кандидат экономических наук, доцент
Мухамедова Лола Джураевна	доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Нарзикулова Фируза Ботировна	доктор психологических наук
Нобель Артем Робертович	кандидат юридических наук, доцент
Ноздрин Наталья Александровна	кандидат педагогических наук, доцент
Нуржанов Сабит Узакбаевич	доктор историч. наук (dsc), старший научный сотрудник
Олтаев Шавкат Собирович	кандидат экономических наук, доцент
Павлов Евгений Владимирович	кандидат исторических наук, доцент
Петрова Юлия Валентиновна	кандидат биологических наук, доцент
Попов Сергей Викторович	доктор юридических наук, профессор
Расулходжаева Мадина Ахмаджоновна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент

Рахматова Фотима Ганиевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент
Рахмонов Азизхон Боситхонови	доктор педагогических наук, доцент
Таспанова Айзада Кенжебаевна	доктор философии (PhD) по экономическим наукам
Таспанова Жыгагул Кенжебаевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент
Табашникова Ольга Львовна	кандидат экономических наук, доцент
Тўрабоева Мадинахон Рахмонжон кизи	кандидат педагогических наук, доцент
Тюрин Александр Николаевич	кандидат географических наук, доцент
Уразова Лариса Карамовна	кандидат исторических наук, доцент
Усубалиева Айнура Абдыжапаровна	кандидат социологических наук, доцент
Утегенова Жамила Джолмурзаевна	доктор философии по эконом. наукам, доцент
Фаттахова Ольга Михайловна	кандидат технических наук, доцент
Ширинов Отабек Тувалович	доктор психологических наук (PhD)
Хамдамова Ситора Сафаровна	Доктор философии в области философских наук, доцент
Ханбабаев Хакимжан Икрамович	доктор педагогических наук (DSc)
Худайкулов Хол Джумаевич	доктор педагогических наук, профессор
Худойбердиева Хурият Каримбердиевна	доктор философии (PhD) в социальной философии
Ширинов Отабек Тувалович	доктор психологических наук (PhD)
Эшназаров Журакул	кандидат педагогических наук, профессор
Эшназарова Фарида Журакуловна	доктор философии по философии (PhD)
Юнусова Бахора Ахтамжоновна	кандидат филологических наук, ассистент
Яхяева Сожида Абдурахимовна	доктор философии (PhD) в социальной философии

М.Маматмуминова BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYAT ORQALI O'YINLARGA O'RGATISH	453
Дадабаева Назирахон Абдуразаковна ҚУТҚАРУВЧИЛАРНИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРГА ТАЙЁРЛАШ	459
Мередова Ольга, Воронина Надежда ВИДЫ УПРАЖНЕНИЙ ПО РАЗГОВОРНОЙ ПРАКТИКЕ НА ЗАНЯТИЯХ ПО НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ	470
Аннаева Багтыгуль, Маммедов Аллаберди, Керимов Кервен УПРАВЛЕНИЕ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ В СЕТЯХ СВЯЗИ	474
Гылыджов Бегенч, Бердыев Мырат, Аннагулыев Араздурды, Дерьяева Гюллер ЭВОЛЮЦИЯ И ВЛИЯНИЕ ОБЛАЧНЫХ ВЫЧИСЛЕНИЙ: ОТ ЦЕНТРАЛИЗОВАННЫХ МЕЙНФРЕЙМОВ ДО РАСПРЕДЕЛЕННЫХ ГРАНИЧНЫХ ВЫЧИСЛЕНИЙ	478
Огулдурды Гурбанова, Огулгозел Чолукова ПРОБЛЕМЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ИХ РЕШЕНИЕ	487
Джумаев Умыт, Атаева Менгли, Гурбанова Сурай, Ходжаниязов Арзув СИНЕРГИЯ НЕФТЕГАЗОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЛОБАЛЬНОЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	492
Сапармырадов Рахым Довранович, Енеджан Аширова ТЕХНОЛОГИИ ВЫРАЩИВАНИЯ ТКАНЕЙ И ОРГАНОВ ДЛЯ ТРАНСПЛАНТАЦИИ	497
Халмурадов Мердан, Илмурадов Илмурат, Яшкузаков Курбанбай, Худайберенов Атамурат ЭВОЛЮЦИЯ КОСМОЛОГИИ: ОТ БОЛЬШОГО ВЗРЫВА ДО ЗАГАДОК ТЕМНОЙ МАТЕРИИ И ТЕМНОЙ ЭНЕРГИИ	502
Аннаева Айлар, Оразгелдиев Азат, Оразкулиева Айгуль, Тойлыева Айлар БЛОКЧЕЙН КАК ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТИ В ВЫЧИСЛЕНИЯХ	511
Шерапов Тойджан, Мухамметгурбанов Эзиз, Нурыева Мерджен, Мухамметназаров Алланур ВНЕДРЕНИЕ SMART-ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКУЮ СИСТЕМУ ТУРКМЕНИСТАНА: НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ	516
Сеитов Сулейман, Кулиев Эзиз, Нурыгдыев Нурберды, Оразов Худайберды ЭВОЛЮЦИЯ И ОБЩЕСТВЕННОЕ ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ	521

ФИО автора(-ов): Termiz davlat pedagogika instituti

О'qituvchisi. *М.Маматмуминова*

Название публикации: «BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYAT ORQALI O'YINLARGA O'RGATISH»

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'yinlar orqali bolalarni mustaqil fikirlashga o'rgatishdagi metodik imkoniyatlari haqida to'liq ma'lumot berib boriladi. Har bir didaktik o'yinlarning turlari mazmuni va metodik imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: o'yin, metodika, izlanuvchanlik va qiziquvchanlik, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalar, o'quv jarayoni, o'yin texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье представлена полная информация о методических возможностях обучения детей самостоятельному мышлению посредством дидактических игр. Раскрываются содержание и методические возможности каждого вида дидактических игр.

Ключевые слова: игра, методика, любознательность и любознательность, инновационные педагогические и информационные технологии, образовательный процесс, игровые технологии.

Abstract: This article provides full information about the methodological possibilities of teaching children to think independently through didactic games. The content and methodical possibilities of each type of didactic games are revealed.

Key words: game, didactics, methodology, inquisitiveness and curiosity, innovative pedagogical and information technologies, educational process, game technologies.

“O'yinsiz to'liq aqliy rivojlanish bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. O'yin - bu bolaning ruhiy dunyosiga hayot beruvchi g'oyalar va tushunchalar oqimi oqib o'tadigan ulkan yorqin oyna. O'yin - bu izlanuvchanlik va qiziquvchanlik alangasini yoqadigan uchqundur”. **V.A. Suxomlinskiy.**

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda bolalarni maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalar asosida kasb-hunarga qiziqishlarini

oshirish hozirgi kunda yaxshi natija berayotgan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Tarbiyachi bu jarayonda bolaning shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

O'yinlar orqali bolalarni mustaqil fikirlashga o'rgatishdagi imkoniyatlari turli xildir. Jumladan: o'yinli texnologiyalar ta'lim jarayonida sifat-samaradorligini oshiradi, bolalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi. Bolalarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantiradi. O'zbekistonda birinchi marta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun multimedia dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur "Rang va shakllarni o'rganamiz" deb nomlanib, "O'zbekim dasturlari" yaratilgan bo'lib, bolalarning ranglar va shakllarni ajrata olish ko'nikmalarini oshirish hamda qiziqarli o'yinlar va misollar orqali mantiqiy tafakkurga o'rgatishga qaratilgan.

Bolalar dastur yordamida qizil, sariq, oq, jigarrang, ko'k, yashil kabi ranglarni oson ajrata boshlaydilar, doira, uchburchak, to'rtburchak kabi sodda shakllarni, shuningdek, narsa-buyumlarni ma'lum bir belgilariga qarab tasniflashni o'rganadilar. Kiritilgan turli rasmlar va qisqa multfilmlar orqali bolalarning o'simlik va hayvonot dunyosi bilan yanada yaqindan tanishuvlari ta'minlanadi. O'quv jarayonidagi rag'batlantirish yordamida esa bolalarni bilim olishga qiziqtirib boriladi. Dastur maktabgacha yoshdagi bolalarning kompyuterda ishlash normalariga asoslangan bo'lib, bolalar dastur bilan mustaqil ishlay oladilar. "Rang va shakllarni o'rganamiz" nomli ushbu multimedia dasturi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan dasturlar tizimining dastlabki namunasi.

Hozirgi kunda "O'zbekim Dasturlari" elektron nashrlar tahririyati tomonidan shu turkumdagi yana yangi dasturlar tayyorlanmoqda. Ular bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish, sanoq va matematik amallarni tez va oson bajarish ko'nikmalarini hosil qilish ingliz, rus alifbolarini o'rgatish va boshqa shu kabilar yo'nalishlarni o'z ichiga olgan. Bugungi kunda kompyuter deyarli har bir oilada bor, shu bois u hatto kichkintoylarda ham qiziqish uyg'otishi tabiiy. Axir ularga biroz vaqtingizni nima uchundir monitorga qaragan holda o'tkazishingiz juda qiziq-da. Sirli narsalar esa odamlarni har doim o'ziga tortib kelgan. Agar sizga Internet va uning imkoniyatlari,

filmlar va kliplar tomosha qilish qiziqarli bo'lsa, yoki ishingiz ba'zi bir dasturlar bilan bog'liq bo'lsa, unda farzandingizga ushbu mashinaning mavjudlik fakti, undan kelayotgan tovushlar va monitordagi rasmlar qiziqarli bo'ladi.

Bolalarni tilga qiziqtirish biroz qiyinchilik tug'diradi, sababi ularga tillar boshida yoqmaydi, chunki ular tushunarsiz-da, ammo vaqt o'tgan sayin, turli qiziqarli o'yinlar yordamida ularni qiziqtirib qo'yishi mumkin. Mazkur o'yinlar turli murakkablik darajasida bo'lib, bu bolalarning turli yosh davrlariga mo'ljallangan, ya'ni alfavit va oddiy so'zlardan iborat o'yinlar, bu o'yinlar mashg'ulotlarni endigina boshlaganlar uchun mo'ljallangan, shuningdek, yuqoriroq darajaga erishgan bolalar uchun animatsiyali rasmlar, qiziqarli viktorinalar shaklidagi o'yinlar ham mavjud. Ertak, topishmoq va hikoyalarning audio formatini ham topish mumkin.

Har bir o'yinlar qiziqarli uslublarda, biror bir mavzuni qamragan, ular ertak yoki kitob qahramonidan foydalangan holda ishlangan. Til talaffuzini esa karaoke yordamida dars jarayonida yoki darsdan so'ng individul yoki guruh tartida tekshirish imkoniyati bo'ladi. Kichkintoyning yoshi sal ulg'ayishi bilan otasi yoki onasining tizzasida o'tirib, shunchaki kuzatish unga kamlik qilib qoladi. Endi u jarayonda qatnashishni, uni ushlab ko'rishni, o'ylashni istaydi. Bunday holatda bolani oz-ozdan kompyuterga o'rgatish kerak. Ammo esingizda bo'lsin, bu kuniga 15-20 daqiqadan oshmasligi lozim.

O'yin axloqiy tarbiya muammolarini hal qilishga, bolalarda xushmuomalalikni rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchi bolalarni birgalikda o'ynash, xatti-harakatlarini tartibga solish, adolatli va halol, itoatkor va talabchan bo'lishni talab qiladigan sharoitlarni yaratadi. O'yinlarni muvaffaqiyatli boshqarish birinchi navbatda ularning dastur mazmunini tanlash va o'ylab ko'rishni, vazifalarni aniq belgilashni, yaxlit o'quv jarayonidagi o'rni va rolini aniqlashni, boshqa o'yinlar va ta'lim shakllari bilan o'zaro aloqani o'z ichiga oladi. U bolalarning kognitiv faolligini, mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirish va rag'batlantirishga, o'yin muammolarini hal qilishning turli usullaridan foydalanishga qaratilgan bo'lishi kerak, ishtirokchilar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni, o'rtoqlarga yordam berishga tayyorligini ta'minlashi kerak.

O'yinlarga qiziqishni rivojlantirish, katta yoshdagi bolalarda o'yin faolligini shakllantirish o'qituvchining ularga tobora qiyin bo'lgan vazifalarni qo'yishi, o'yin harakatlarini taklif qilishga shoshilmasligi bilan erishiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati ongliroq bo'ladi, u jarayonning o'ziga emas, balki ko'proq natijaga erishishga qaratilgan. Ammo kattaroq guruhlarda ham o'yinni boshqarish shunday bo'lishi kerakki, bolalar tegishli hissiy kayfiyatni, qulaylikni saqlab turishlari kerak, shunda ular unda ishtirok etish quvonchini va qo'yilgan vazifalarni hal qilishdan qoniqish hissini boshdan kechirishlari kerak.

O'yinda o'rtoqlik munosabatlari shakllanadi. Bola besh yoshga qadam qo'yganda, boladagi kuzatuvchanlik 3-4 yoshga nisbatan yanada ortadi, tafakkuri rivojlanib, bilish doirasi kengayadi. Shu sababli o'yin mazmuni murakkablashib boradi. Xayolning rivojlanishi orqali ertak va hikoya mazmuni bo'yicha o'yinlar o'ynaydi. Katta bog'cha yoshida ijodiy o'yinlar juda yaxshi rivojlanadi. Bu o'yinlarda bolalar o'zlari eshitgan, ko'rgan voqealar, hikoyalar, kitob va boshqa manbalardan olgan bilim, malaka, his-hayajonlarini to'liq qo'llay boshlaydilar.

Uzoq muddat davom etadigan o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarining yuqori bosqichidir. Katta guruh yoshidagi bolalar o'yinlariga to'g'ri rahbarlik qilinsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga keladi. Rolli o'yinlarda bolalar har xil vositalardan foydalanadilar. O'yin jarayonida ular ba'zi bir narsalarni xohlaganicha nomlab, faraz qilib o'ynaydilar. Masalan, qumni shakar, stulni mashina, danaklarni konfet o'rnida qabul qiladilar. Aks ettiruvchi vosita qancha ko'p bo'lsa, o'yin mazmuni shunchalik boyib boradi. Psixolog J. Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramzli, ma'noli tasavvur shakllarining tayanchi, degan xulosaga kelgan. O'yin davomida bola shaxs sifatida shakllanib boradi. Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, bolalar o'yinlariga har tomonlama to'g'ri rahbarlik qilish orqali ularga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi bolalar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar, o'yinlarning rivojlanib, takomillashib borishiga ta'sirini ko'rish mumkin.

Bolalar o'yinlarining ikkinchi turkumi qoidali o'yinlardir. Bunga quyidagilar kiradi:

- didaktik;
- harakatli;
- musiqaviy;
- ermak o'yinlar.

Qoidali o'yinlar barcha o'yinlar kabi amaliy faoliyat hisoblanadi. Lekin bolalar belgilangan qoidaga amal qilishlari talab etiladi. Belgilangan qoidalar kichkintoylarda mas'uliyatli bo'lishni tarbiyalaydi. Bola jamoada hamjihat ishlash, atrofdagilar bilan murosada bo'lishga o'rganib boradi. Har bir qoidali o'yinlar o'z g'oyasi va mazmuniga egadir. O'yin davomida qoidalarning to'g'ri bajarilishi "to'g'ri" yoki "noto'g'ri", "o'yin qoidasi buzildi", degan baholar bilan belgilanadi. Bolalar o'yin vaqtida o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganib boradi. Albatta, har bir o'yin so'ngida natija tarbiyachi tomonidan muhokama qilinishi, unda qo'yilgan maqsad, qoida va erishilgan natijalarga e'tibor qaratilishi kerak. O'yin so'ngida qatnashchilarni rag'batlantirish, faol ishtirokchilarni maqtash – kelgusi o'yinlarning samarali o'tishini ta'minlaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha turdagi qoidali o'yinlar mazmuniga ko'ra o'z qoidalariga ega bo'ladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'yin harakatlari orqali amalga oshiriladigan o'yin vazifasining mavjudligi;
- o'ynovchilarning harakat va munosabatlari qoidalar bilan yo'lga solib turilishi;
- o'yinda qoida va tayyor mazmunning mavjudligi;
- o'yinning ta'lim-tarbiyaviy mazmuni o'yin harakatlari vaqoidalarida mujassam bo'lib, ular bolalar uchun mustaqil vazifa sifatida namoyon bo'lmaydi.

Adabiyotlar

1. «Ilk qadam» Maktabgacha ta'lim muassasalarining Davlat o'quv dasturi. –T., 2018. 6-9 bet.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004.
3. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

4. Omonov N.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T., 2009. 156-165 betlar.
5. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – T., 2018. 77-81-bet.
6. “Tarbiyachining kasbiy mahorat va kompetentligi” moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua. –T.: TDPU, 2017. 19-26 betlat.
7. GAFFAROVNA M. M. Improving Pedagogical Competence of Future Specialists //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – 2020. – T. 7. – №. 08. – С. 112-115.
8. Abdumajitova S. A. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА STEAM О 'QITISH TEXNOLOGIYASIGA ASOSAN RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM MUHITINI YARATISH //Inter education & global study. – 2024. – №. 4 (2). – С. 16-22.
9. GAFFAROVNA M. M. Development and preschool children psychological description of activity //DEVELOPMENT. – 2020. – T. 6. – №. 9.
10. Абдумажитова С. А. ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ДИЗАЙН STEAM //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-2 (117). – С. 367-370.
11. Gaffarovna M. M. The role of the family in the development of a preschool child //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 4. – С. 183-187.
12. Gaffarovna M. M. Theoretical Bases Of Methods Of Development Of Children's Speech //Academicia Globe. – 2021. – T. 2. – №. 05. – С. 104-106.